



SHARQ SIVILIZATSIYASIDA BOBURIYLAR DAVLATINING O'RNI VA BOSHQARUV TIZIMINING SHAKLLANISHI

Abdusamadova Zarina Hasan qizi

Xavfsizlikni huquqiy ta'minlash
yo'nalishi 382-guruh kursanti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan asos solingan Boburiylar sulolasining siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvi tizimi va amalga oshirilgan ijtimoiy-islohotlar tarixiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Boburiylar davlatining markazlashgan boshqaruv modeli, Temuriylar siyosiy merosining davomiyligi, shuningdek, Humoyun va Akbar hukmronlik davridagi islohotlar kontekstida davlat institutlarining shakllanishi ilmiy asosda yoritilgan. Xususan, moliya, adliya, harbiy, diniy va ma'naviy sohalaridagi boshqaruv tizimlari tavsifi, dinlararo bag'rikenglik siyosati, ma'muriy bo'linmalar faoliyati va Boburiylar tuzumining o'ziga xosliklari tarixiy hujjatlar, sharqshunoslik manbalari va zamonaviy tarixshunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilinadi. Maqola yakunida Boburiylar imperiyasining Sharq sivilizatsiyasidagi o'rni va uning dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyati xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: Boburiylar sulolasi, davlat boshqaruvi, markazlashgan tizim, Temuriylar merosi, Humoyun, Akbar, siyosiy islohotlar, ma'muriy idoralar, dinlararo bag'rikenglik, Hindiston tarixi, sharq sivilizatsiyasi.

Аннотация: В данной статье с историко-теоретической точки зрения анализируются политическая деятельность династии Бабуридов, основанной Захириддином Мухаммадом Бабуrom, система государственного управления и проведённые социальные реформы. В исследовании освещается централизованная модель управления государством Бабуридов, преемственность политического наследия Тимуридов, а также формирование государственных институтов в



контексте реформ, осуществлённых во времена правления Хумаюна и Акбара. В частности, описываются системы управления в сферах финансов, юстиции, армии, религии и духовности, политика межрелигиозной терпимости, деятельность административных структур и уникальные особенности устройства Бабуридов, на основе исторических документов, ориенталистических источников и современных историографических подходов. В заключении статьи подводится итог о месте империи Бабуридов в цивилизации Востока и её актуальном научно-практическом значении.

Ключевые слова: династия Бабуридов, государственное управление, централизованная система, наследие Тимуридов, Хумаюн, Акбар, политические реформы, административные органы, межрелигиозная терпимость, история Индии, восточная цивилизация.

Abstract: This article provides a historical and theoretical analysis of the political activity, administrative system, and social reforms implemented by the Baburids, founded by Zahiriddin Muhammad Babur. The research highlights the centralized governance model of the Baburid state, the continuity of the Timurid political legacy, and the formation of state institutions during the reigns of Humayun and Akbar. In particular, the paper explores the structures of governance in financial, judicial, military, religious, and spiritual domains, the policy of interfaith tolerance, the role of administrative bodies, and the unique characteristics of the Baburid regime, based on historical records, oriental sources, and contemporary historiographical approaches. The conclusion emphasizes the Baburid Empire's place within Eastern civilization and its current scientific and practical relevance.

Keywords: Baburid dynasty, state governance, centralized system, Timurid legacy, Humayun, Akbar, political reforms, administrative institutions, interfaith tolerance, Indian history, Eastern civilization.



Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo (1483-yil 14-fevral, Andijon – 1530-yil 26-dekabr, Agra) — Temuriylar sulolasining yirik vakillaridan biri, o‘zbek mumtoz adabiyotining zabardast namoyandasi, buyuk shoir, tarixchi, geograf, harbiy arbob va mohir davlat rahbari bo‘lib, Hindiston hududida uch yarim asr hukmronlik qilgan Boburiylar sulolasining asoschisi sanaladi. Bobur Temuriylar an‘analariga sodiq holda bolaligidan maxsus tayinlangan tarbiyachilar, yirik fozil olimlar rahbarligida harbiy san‘at, fiqh ilmi, arab va fors tillari, tarix va adabiyotdan chuqur saboq oldi. Yoshligidan ilm-fanga, adabiyotga va she‘riyatga mehr qo‘ygan Bobur o‘z davrining ilg‘or tafakkur egalariidan biri sifatida shakllandi.

Amir Temurning vafoti ortidan markaziy hokimiyatsizlik va siyosiy parokandalik Movarounnahrda izchil davom etdi. Temuriylar imperiyasining parchalanishi, kichik beklar o‘rtasidagi uzluksiz kurashlar, soliq bosimi va iqtisodiy tanazzul keng xalq ommasining ahvolini og‘irlashtirdi. Bu inqirozli tarixiy sharoitda, aniqrog‘i 1483-yil 14-fevral sanasida Farg‘ona viloyatining hukmdori Umarshayx Mirzo oilasida dunyoga kelgan Bobur, yoshligidan Temuriy shahzodalarga xos xatti-harakatlari bilan ajralib turar, unga "Bobur" — ya‘ni “sher” degan taxallus beriladi.

Boburning bolaligi Andijonda o‘tib, u zamonasining yetuk allomalari, fiqh ilmi vakillari, shuningdek, harbiy strategiyani chuqur bilgan tajribali sarkardalardan saboq oladi. 1494-yilda otasi Umarshayx Mirzoning fojiali halok bo‘lishi ortidan, atigi 12 yoshida siyosiy ziddiyat va taxt uchun kurashlar avjiga chiqqan bir davrda Bobur Farg‘ona taxtiga o‘tirdi. Raqiblari — Sulton Ahmad Mirzo va Sulton Mahmudxonga qarshi jasorat bilan kurashib, yosh bo‘lishiga qaramay, siyosiy yetakchilik fazilatlarini namoyon eta boshladi.

XV asr oxirlariga kelib, Movarounnahr hududi temuriy shahzodalar va zodagonlar tomonidan bo‘linib ketgan, hududiy mustaqillik da‘volari kuchaygan, siyosiy fitnalar keng quloq yozgan edi. Shu sababli, Bobur hokimiyatining dastlabki yillarida bir qator muhim choralarni amalga oshirib, o‘z mavqeini mustahkamlash, beku amaldorlar bilan murosali



munosabatlar o‘rnatish, qo‘shinni tartibga keltirish, davlat boshqaruvida intizom o‘rnatish borasida sa’y-harakatlarni boshlab yubordi.

Boburning asosiy siyosiy maqsadi Amur Temur davlatining sobiq poytaxti bo‘lgan Samarkandni egallash, geografik va strategik jihatdan muhim bo‘lgan Movarounnahrda kuchli markazlashgan davlatni saqlab qolish hamda Temuriylar saltanatini qayta tiklashdan iborat edi. Ammo Shayboniylarga qarshi 1495–1501-yillar oralig‘ida olib borilgan harakatlar samara bermagach, u o‘ziga sodiq 200–300 navkari bilan Hisor tog‘lari orqali Afg‘onistonga yo‘l olib, bu yerda mavjud ichki ziddiyatlardan foydalanib, avval G‘azni, so‘ngra Kobulni egallaydi. Kobul Boburning siyosiy markaziga aylanib, u yerda mustaqil davlat boshqaruv tizimi joriy etiladi, qo‘shin isloh qilinadi, qat’iy ichki tartib-intizom yo‘lga qo‘yiladi, qurilish, hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

1519-yil bahoridan boshlab Bobur Hindistonni zabt etish rejasini amalga oshirishga kirishib, bir necha yirik harbiy yurishlar tashkil etadi. Nihoyat, 1526-yilning aprel oyida Panipat jangi davomida o‘zidan son jihatdan ancha ustun bo‘lgan Dehli sultoni Ibrohim Lodiyning yuz ming kishilik qo‘shinini atigi 12 minglik o‘z lashkari bilan tor-mor keltiradi va Dehlini egallaydi. Keyinchalik, Hindistonning yana bir yirik hukmdori Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Bengalgacha bo‘lgan shimoliy hududlarni o‘ziga bo‘ysundiradi. Agrani poytaxt sifatida tanlagan Bobur bu yerda keng ko‘lamli qurilish, obodonlashtirish va davlat boshqaruvi islohotlarini amalga oshiradi. Shu tariqa, Zahiriddin Muhammad Bobur Hindiston hududida uch yarim asr davomida hukmronlik qilgan Boburiylar sulolasiga asos soladi. [1].

Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan Hindistonda markazlashgan kuchli davlatni barpo etishga yo‘naltirilgan siyosiy faoliyat qisqa vaqt ichida muhim natijalarga olib keldi. Bobur o‘z boshqaruvi davrida mamlakatda siyosiy barqarorlikni tiklash, yerlarni yagona markazlashgan boshqaruv ostida birlashtirish, yirik shaharlarda obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish, infratuzilmani yaxshilash, savdo-sotiq aloqalarini rivojlantirish va buning uchun zarur ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratishga



ustuvor ahamiyat qaratdi. Ayniqsa, Hindistonda ko'plab me'moriy inshootlar, bog'lar, kutubxonalar, karvonsaroylar va boshqa ijtimoiy-ma'naviy obyektlarning qurilishi Boburning shaxsiy tashabbuslari, shuningdek, uning o'g'illari va avlodlari tomonidan izchil davom ettirildi. Bu qurilishlar nafaqat mamlakatni obodonlashtirish, balki davlat hokimiyatining siyosiy va madaniy ramzi sifatida mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Dastlab Boburiylar davlat boshqaruvi tizimi Sohibqiron Amir Temur tomonidan joriy etilgan markazlashgan ma'muriy model[2] asosida shakllantirildi. Jumladan, Amir Temur haqidagi “Malfuzoti Temuriy”[3] asarida qayd etilishicha, Temur saroyida bosh vazir lavozimida faoliyat yuritgan devonbegi qo'l ostida yetti nafar vazir ishlagan. Ular orasida vaziri mamlakat, vaziri sayyor, vaziri sipoh va vaziri korxona lavozimidagi mansabdorlar bo'lib, ular bevosita moliyaviy masalalar, harbiy ta'minot, tashkiliy-iqtisodiy ishlar va davlat mulkini boshqarish bilan shug'ullangan. Mazkur tuzilma keyinchalik Boburiylar imperiyasining boshqaruv tizimini shakllantirish va takomillashtirishda asosiy model sifatida xizmat qilgan.

Boburiylar saltanati ma'muriy tuzilmasida yuqorida zikr etilgan davlat boshqaruvi idoralaridan tashqari, vaziri arz, vaziri devon, vaziri mushrif kabi lavozimlar ham mavjud bo'lgan. Mazkur lavozimlar orqali boshqaruv tizimining turli bo'g'inlari yanada funksional jihatdan ajratilgan bo'lib, ma'muriy bo'limlar faoliyatida aniq vakolatlar, boshqaruv tartibi va javobgarlik mezonlari joriy etilgan. Bu esa islohotlar doirasida ma'muriy tuzilmaning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan[3].

Bobur vafot etganidan so'ng, 23 yoshli Humoyun Hindiston taxtiga o'tirdi. Otasining vasiyatiga binoan, Humoyun o'z ukalariga muayyan hududlarni boshqarishga topshiradi: Askarini Sambhalga, Hindolni Mewarga, katta ukasi Komronni esa Kobul va Qandahorga hokim etib tayinlaydi. Biroq Komron bu tayinlovdan chetga chiqib, o'z vakolatlarini kengaytirishga urinadi va Panjob viloyati hamda Hisor o'lkalarini o'z mulkiga qo'shib oladi. Ukalar Humoyun boshchiligidagi yagona markazlashgan davlat doirasida faoliyat yuritish o'rniga, o'z-o'zicha mustaqil harakat qila boshlaydilar. Bu holat



davlatning markazdan uzoqlashuviga, siyosiy parokandalikka va kuchsizlanishiga olib keladi.

Mazkur davrda davlat boshqaruvi tizimi haqida fikr yuritilsa, Humoyun tomonidan yangi ma'muriy tizimlar joriy qilinadi. Jumladan, saroy a'yonlari uch toifaga bo'linadi va har bir toifa boshqaruvi uchun alohida mas'ul shaxs tayinlanadi. Bu islohotlar davlat boshqaruvida ma'lum bir tartib va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi funksional taqsimotni yaratishga xizmat qilgan[4,16].

Humoyun tomonidan joriy etilgan yangi ma'muriy tizimga ko'ra, saroy a'yonlari uch guruhga bo'lingan bo'lib, har bir guruh davlat boshqaruvida muayyan ijtimoiy funksiyalarni bajargan. Birinchi guruh — "ahl-i davlat" deb atalgan bo'lib, unga davlat arboblari, harbiy lashkarboshilar va yuqori martabali mansabdorlar kirgan. Ikkinchi guruh — "ahl-i saodat" nomi bilan yuritilgan bo'lib, unga qozilar, diniy ulamolar va mashhur shayxlar mansub bo'lgan. Uchinchi guruh esa "ahl-i murod" deb nomlanib, unda san'atkorlar — xonandalar, raqqosalar va shoira-shoirlar jamlangan.

Davlat boshqaruvi tizimi yana bir o'ziga xos shakl — "chorunsur" deb atalgan to'rt mahkama orqali amalga oshirilgan. Ular olov, suv, yer va havo unsurlari bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy institutlar edi. Olov mahkamasi harbiy ishlar bilan shug'ullangan bo'lsa, havo mahkamasi saroy ichki xo'jaliklariga mas'ul bo'lgan. Suv mahkamasi sug'orish tizimi, shirinliklar va ichimliklar tayyorlash hamda ularni saqlash ishlari bilan band bo'lgan. Yer mahkamasi esa soliqlarni yig'ish, "holisa" deb nomlangan davlatga tegishli yerlar boshqaruvi va turli qurilishlar ishlarini olib borgan. Eslatib o'tish joizki, holisa yerlaridan tushgan daromad to'g'ridan-to'g'ri davlat xazinasiga yo'naltirilgan bo'lib, bu mablag'lar ko'pincha harbiy harajatlar, diniy-ma'rifiy muassasalar — masjid va shayxlar ehtiyojlari uchun sarflangan[4, 16].

Ukalarining siyosiy jihatdan jipslashmaganligi natijasida Humoyun 1540–1555-yillar davomida quvg'inlikda yashashga majbur bo'ladi. Nihoyat, 1555-yilda u otasi Bobur asos solgan saltanatni, Hindistondagi markazlashgan davlatni qayta tiklashga muvaffaq



bo'ladi. Biroq o'zi katta qiyinchiliklar bilan qo'lga kiritgan g'alabalar samarasidan to'laqonli bahramand bo'lishga ulgurmay, 1556-yil 24-yanvarda, 49 yoshida vafot etadi.

Bobur va Humoyunning davlat boshqaruvi borasidagi faoliyatidan yaxshi xabardor bo'lgan mashhur tarixchi Xondamir o'zining “Humoyunnoma” asarida Humoyunning siyosiy faoliyati va olib borgan islohotlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Unga ko'ra, Humoyun davlat boshqaruvi tizimini uch asosiy bo'limga ajratgan: “Davlat”, “Saodat” va “Murad”. Har bir bo'lim muayyan ijtimoiy yoki ma'muriy sohalarni qamrab olgan bo'lib, ular yagona rahbar ko'rsatmasi asosida faoliyat olib borgan.

“Saodat” bo'limi asosan shari'at masalalari, diniy ta'lim, ilm-fan va madaniyat sohaslarini nazorat qilgan. “Sarkafi Davlat” bo'limiga Boburning sodiq sarkardalaridan biri bo'lgan Hindulbek rahbarlik qilgan. “Sarkora Murad” esa Amiri Uvays zimmasiga yuklatilgan bo'lib, bu bo'lim ko'proq amaliy-maishiy va madaniy-ijtimoiy masalalarni boshqarishda ishtirok etgan. Har uchala bo'lim faoliyati ustidan doimiy nazorat o'rnatilgan bo'lib, bu orqali davlat boshqaruvining uzviyligi, funksional taqsimoti va markazlashgan nazorat mexanizmi ta'minlangan [5,11].

Boburiylar saltanati davrida shakllangan davlat ma'muriy boshqaruv tizimi o'zining murakkab va izchil tuzilmasi bilan ajralib turadi. Hindiston tarixshunosligida alohida o'rin egallagan olim V.D. Moxajonning ta'rifiga ko'ra, Boburiylar davlati markaziy boshqaruv tizimi bir qator yirik idoraviy bo'linmalardan iborat bo'lgan. Ulardan eng muhimlari quyidagilardir:

1. Moliya ishlari vazirligi — bu idora soliqlarni yig'ish, byudjetni shakllantirish va davlat xarajatlarini muvofiqlashtirish bilan shug'ullangan. Uning rahbari “Devon-i a'lo” deb atalib, ushbu tuzilma markaziy moliyaviy boshqaruv idorasi — oliy devon hisoblangan.
2. Ichki ishlar boshqarmasi — davlatning ichki siyosiy barqarorligi, tartib va xavfsizlikni ta'minlash masalalarini olib borgan. Bu idora “Xoni Zamon” yoki bosh dorug'a tomonidan boshqarilgan.



3. Harbiy moliya boshqarmasi — harbiy xizmatchilarga maosh to‘lash, harbiy sarf-xarajatlarni yuritish, qurolli kuchlarning moddiy ta’minoti bilan shug‘ullangan. Bu tizimga “Saltonat Baxshisi” rahbarlik qilgan.
4. Adliya ishlari idorasi — fuqarolik va jinoiy ishlarning ko‘rib chiqilishi, sud nazorati va huquqni muhofaza qilish funksiyalarini bajargan. U “Qoziy ul-quzzot” — ya’ni bosh qozining nazorati ostida faoliyat olib borgan.
5. Diniy va xayriya ishlari boshqarmasi — madrasa, masjid va boshqa diniy muassasalar faoliyatini moliyalashtirish, xayriya mablag‘larini boshqarish vazifasini bajargan. Bu idoraga “Sadr us-sudūr” — bosh sadr rahbarlik qilgan.
6. Ma’naviyat va axloq nazorati idorasi — fuqarolarning e’tiqodi, axloqiy qadriyatlari va diniy intizomini nazorat qilgan. Bu tizim bosh muhtasib tomonidan boshqarilgan.
7. Harbiy artilleriya boshqarmasi (topxona) — davlatning qurol-yarog‘ zaxirasi, artilleriya tizimlari va ularning texnik xizmatiga mas’ul bo‘lgan. Bu idora “Miri Otish” yoki “Dorug‘ai Topxona” tomonidan boshqarilgan.
8. Maxfiy razvedka va axborot xizmati — mamlakatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy voqealardan podshohni xabardor qilib borish, ichki va tashqi xavfsizlik bo‘yicha ma’lumot yig‘ish bilan shug‘ullangan. Bu bo‘lim boshlig‘i “Dorug‘ai Darak-shavqi” deb atalgan[5,17-18].

Humoyun vafotidan so‘ng, taxtni uning 13 yoshli o‘g‘li Akbar egallaydi. Bu davrda Boburiylar saltanati hali to‘liq mustahkamlanmagan bo‘lib, yosh Akbar notinch va siyosiy jihatdan parokanda davlatni meros qilib oladi. Biroq u 1557–1601-yillar oralig‘ida amalga oshirgan ketma-ket harbiy yurishlari orqali markazlashgan va barqaror imperiyani shakllantirishga erishadi. Akbarning muvaffaqiyatli harbiy yurishlari natijasida bir necha yangi viloyatlar zabt etiladi va Boburiylar davlati kuchli, markazlashgan imperiyaga aylanadi. Mayda-mayda xonliklar o‘rnida markaziy hokimiyatga bo‘ysunuvchi yirik davlat vujudga keladi. Akbarning istilolari davlat hududining kengayishiga hamda saltanatning siyosiy barqarorligiga xizmat qiladi.



1574-yildan boshlab, Akbar o'z davlatining qudratini yanada mustahkamlash, mahalliy aholining ishonchini qozonish, ularni markaziy hukumat atrofida jipslashtirishga kirishadi. Buning uchun u keng ko'lamli ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish zarurligini anglaydi. Ma'muriy islohotlar doirasida Akbar markazlashmagan boshqaruv shakllariga chek qo'yib, davlat idoralarini to'g'ridan-to'g'ri o'z qo'li ostida boshqarishni yo'lga qo'yadi. Shu bilan birga, mustaqil hokimlikka intilgan laskarboz xonlarning harakatlariga barham beriladi. U ilgari amal qilgan yer egaligi — jogir (ya'ni harbiy xizmat evaziga ajratiladigan yerlar) tizimini tugatib, barcha yerlarni holisa, ya'ni davlat tasarrufiga o'tkazadi. Bu orqali harbiylarga endi yer emas, xazina hisobidan pul shaklida maosh to'lanadigan tizim joriy etiladi.

Akbar tomonidan amalga oshirilgan eng muhim islohotlardan yana biri — o'lchov va pul tizimini standartlashtirish bo'ldi. U umumiy uzunlik va og'irlik birliklarini belgilab, uzunlikni o'lchashda 94 sm ga teng bo'lgan gaz birligini, og'irlikni o'lchashda esa 388 grammga teng maund birliklarini joriy etadi. Pul muomalasida esa asl qimmatbaho metallardan yasalgan rupiya va mahuriy tanga birliklarini muomalaga kiritadi. Bu islohotlar natijasida oltin va kumushning sarfini kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va xazina zaxiralarini asrash imkoniyati yuzaga keladi.

Akbar hukmronligi davridagi eng o'ziga xos va chuqur islohotlardan biri — dinlararo bag'rikenglik siyosati bo'ldi. Bu islohotlar ham avvalgilar kabi markazlashgan va barqaror davlat tuzishni ko'zlagan bo'lsa-da, ularning amalga oshirilishi murakkab va uzoq davom etgan jarayon bo'ldi. Akbar otasi va bobosi kabi islom diniga sodiq bo'lishiga qaramay, Hindistonda turli din vakillarining mavjudligini, shuningdek, aholining aksariyat qismini hindular tashkil etishini inobatga olib, diniy siyosatni millatlararo totuvlikka asoslangan yo'nalishda olib boradi. Dastlab hindularni, ya'ni ko'pxudolikni e'tirof etuvchi din vakillarini o'z saroyi atrofiga yig'adi.

1578-yildan boshlab, saroyda diniy muzokaralar o'tkazilib, ularga boshqa din vakillari ham taklif qilina boshlaydi. 1579-yil boshlarida Akbar hind brahmanlarini kechki diniy suhbatlarga jalb etadi, keyinchalik esa ularni rasmiy diniy munozaralarga qo'shishga



ruxsat beradi. Ko'p o'tmay bu munozaralarga forslar, sekhlar, jaynlar va boshqa diniy jamoalar vakillari ham qo'shiladi. Akbar har bir din vakilining urf-odatlarini hurmat qilishga alohida e'tibor beradi, ularni kamsitishga qat'iyan yo'l qo'ymaydi[4,34].

Akbar davrini o'rgangan hind tarixchilari u haqida quyidagi fikrni ilgari suradilar: “Akbar insonparvar hukmdor bo'lib, jamiyatda chuqur islohotlar o'tkazishga jiddiy intilgan. U adabiyot va san'atning sadoqatli homiysi bo'lgan.” Ushbu tarixiy baho Akbar shaxsining madaniy-ma'naviy taraqqiyotga bo'lgan e'tiborini hamda uning ijtimoiy sohadagi faol siyosatini ifodalaydi. Umuman olganda, Akbar hukmronlik qilgan yillar Hindiston tarixida porloq taraqqiyot, davlat mustahkamligi va madaniy yuksalish davri sifatida baholanadi[4,43].

Yuqoridagi tarixiy va nazariy manbalar tahlili asosida quyidagicha umumiy xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, Boburiylar davlati markazlashgan boshqaruv tizimiga ega bo'lgan bo'lib, uning siyosiy-ijtimoiy barqarorligi bevosita podshoh hokimiyatining kuchi bilan ta'minlangan.

Ikkinchidan, davlat boshqaruvi tizimi devon va vazirliklar orqali amalga oshirilib, bosh vazir va unga bo'ysunuvchi turli lavozimli mansabdorlar ijro hokimiyatining funksional bo'g'inlari sifatida faoliyat yuritgan.

Uchinchidan, Boburiylar imperiyasida qonun ustuvorligi va intizomni ta'minlovchi huquq-tartibot idoralari mavjud bo'lib, fuqarolar va mansabdorlar uchun qonunlarga so'zsiz bo'ysunish tamoyili ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan.

To'rtinchidan, har bir Boburiy hukmdor o'z davrida siyosiy, harbiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda izchil islohotlar olib borib, davlatni mustahkamlashga hissa qo'shgan. Nihoyat, Boburiylar saltanatida dinlararo bag'rikenglik siyosati amalda bo'lib, har bir fuqaroning vijdon erkinligi va o'z diniga e'tiqod qilish huquqi qonuniy kafolatlangan, boshqa din vakillariga nisbatan hurmat tamoyili davlat siyosatining muhim elementi sifatida qaralgan.



Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari asos solgan Boburiylar imperiyasi turkiy davlatchilik an'analari, temuriylar merosi hamda islomiy siyosiy-madaniy qadriyatlarning Hindiston hududida uyg'unlashuvi asosida shakllangan bo'lib, u Markaziy va Janubiy Osiyo tarixida chuqur iz qoldirgan. Bobur tomonidan tashkil etilgan davlat boshqaruv tizimi, ayniqsa, uning Sohibqiron Amir Temur davlat boshqaruvi modeliga tayanuvchan holda amalga oshirgan harbiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlari imperiyaning mustahkam asoslarda rivojlanishiga zamin yaratdi.

Boburdan keyingi hukmdorlar — Humoyun va Akbar tomonidan olib borilgan islohotlar esa Boburiylar sulolasining barqaror va uzoq davom etgan hukmronligini ta'minladi. Xususan, Akbar davridagi markazlashgan boshqaruv siyosati, moliya, soliq, harbiy, adliya, diniy va ma'naviy sohalardagi islohotlar zamonaviy boshqaruv institutlari shakllanishiga asos bo'ldi. Akbar tomonidan amalga oshirilgan dinlararo bag'rikenglik siyosati esa jamiyatda ijtimoiy totuvlik va millatlararo barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qildi.

Shu tariqa, Boburiylar davlati tarixan qisqa muddatda Hindistonni yuksak taraqqiyot bosqichiga olib chiqqan, ilg'or boshqaruv tajribasi va madaniy merosi bilan butun Sharq sivilizatsiyasida o'ziga xos o'rin egallagan imperiyalardan biri sifatida tarixda muhrlanadi. Ushbu sulola tomonidan barpo etilgan davlat boshqaruvi tizimi va olib borilgan chuqur islohotlar bugungi kunda ham dolzarb ilmiy-nazariy tadqiqotlar obyekti bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдулахад Мухаммаджонов, Абдурашид Абдуғафуров.
<http://eadabiyot.uz/uzbek/mumtoz/1122-maqola.html>
2. Қаранг: Темур тузуклари. Т. – 1996.
3. Malfuzati-Temuri. Translated by Major C.Steward, London. 1830.
4. Ҳошимов И. Ҳиндистонда бобурийлар сулоласи салтанати – Т.: “Ўқитувчи” 1996 – 134 б
5. Сатимов Ғ. Бобурийлар салтанатида давлат бошқаруви. – Т.: “O'zbekiston”, 2018. – 123 б.